
FARG'ONA VILOYATI BOJXONA BOSHQARMASIGA YANGI RAHBAR TAYINLANDI

"Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi "Islom Karimov" nomidagi "Toshkent xalqaro aeroporti" chegara bojxona posti boshlig'i bo'lib ishlab kelgan To'rayev Shavkat Shonazarovich Farg'ona viloyati bojxona boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.

Bugun viloyat hokimligida bo'lib o'tgan yig'ilishda Shavkat To'rayev viloyat jamoatchiligiga tanishtirildi.

Shavkat To'rayev 1979 yilda Buxoro viloyati Romiton tumanida tug'ilgan. Toshkent davlat yuridik institutini tamomlagan. 2004 yildan beri bojxona tizimida turli mas'ul lavozimlarda faoliyat olib borgan.

2017 yildan buyon Farg'ona viloyati bojxona boshqarmasi boshlig'i bo'lib ishlab kelgan Ixvoljon Azimov boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan egallab turgan lavozimidan ozod etildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-06-10 10:03:03